

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Ilyasova Mohira Ruxiddin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi bo’yicha 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolamda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonining tarbiyaviy ahamiyati, o‘quvchilarda ekologik madaniyat, mehnatsevarlik, kuzatuvchanlik, mas’uliyat, vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tabiiy fan darslarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi integrativ imkoniyatlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish metodlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Maqola davomida tarbiyaviy jarayonda qo‘llaniladigan metodlar hamda ularning samaradorligi misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy fan, tarbiya, ekologik ta’lim, kompetensiya, kuzatuvchanlik, integratsiya, o‘quv faoliyati.

Аннотация (на русском языке): В данной статье проанализировано воспитательное значение преподавания естественных наук, раскрыта его роль в формировании экологической культуры, трудолюбия, наблюдательности, ответственности и патриотизма у учащихся. Обоснованы интегративные возможности предметов естественного цикла в учебно-воспитательном процессе и преимущества использования современных педагогических технологий. Показаны методы, применяемые в воспитательной деятельности, и их эффективность на практике.

Ключевые слова: естественные науки, воспитание, экологическое образование, компетенции, наблюдательность, интеграция.

Abstract (In English): This article analyzes the educational and upbringing significance of teaching natural sciences and explains their role in fostering ecological culture, diligence, observation skills, responsibility, and patriotism among students. The integrative potential of natural science subjects and the advantages of applying modern pedagogical technologies are scientifically justified. The effectiveness of methods used to enhance students’ moral and ecological awareness is illustrated through practical examples.

Keywords: natural sciences, education, upbringing, ecological literacy, competence, observation, integration.

Bugungi kunda ta’lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida to‘laqonli kamol topishini ta’minlash, jonli va jonsiz tabiatni sevishga, ardoqlashga





o'rgatish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tabiiy fanlar– o'zining mazmun-mohiyati jihatidan, tarbiyaviy jihatdan nihoyatda boy bo'lgan fanlar qatoriga kiradi. Chunki bu fanlar o'quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik mas'uliyat, fikrlash madaniyati va ilmiy dunyoqarashini shakllantirib, ularda tabiatimiz in'om etgan barcha narsalarni avaylash, ko'paytirish, ulardan oqilona foydalanish hissini rivojlantirib boradi. Boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchining kelajak hayotidagi, ta'limidagi eng muhim poydevor hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrofga, tabiatga, jamiyatga va insoniy munosabatlarga bo'lgan qarashlari rivojlanib boradi. Tabiiy fanlar esa bu jarayonda muhim o'rin egallaydi. O'zining amaliy tajribamga tayangan holda aytishim mumkinki, tabiiy fanlar darsi bolaga eng qiziqarli va hayotiy ko'rinadigan fan hisoblanadi. Chunki bola har kun ko'rib yurgan narsalari, ya'ni, atrof-muhit hodisalari, osmonda uchayotgan qushlar – allaqachon uning qiziqish doirasida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Davlat ta'lim standartlarida ta'limning tarbiyaviy yo'nalishi alohida ta'kidlanadi. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda tabiatni muhofaza qilish odatlari, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari, mehnatsevarlik, kuzatuvchanlik va mustaqil fikrlash kabi sifatlarni shakllantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda [1].

Maqolaning maqsadi — tabiiy fanlarni o'qitishning tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslash, amaliy jarayonlarda qo'llaniladigan tarbiyaviy metodlarni tahlil qilish va samaradorligini ko'rsatishdan, yashab turgan o'lka, mahalla, maktab atrofidagi o'simliklarni, daraxtlarni, hayvonlarni, jonsiz tabiatni avaylab-asrashda tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan iborat.

1. Tabiiy fanlarni tarbiyaviy ta'siri.

Tabiiy fanlar inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi fanlar majmuasidir. Shu bois ular o'quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish bilan birga, tarbiyaviy jarayonda ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, tabiiy fan darslarida jonli va jonsiz tabiatning o'zaro bog'liqligi, suv hayot manbai ekanligi, ekologik muammolarni o'rganish orqali o'quvchilar tabiatning yaxlit tizim ekanini his qiladi. Bu esa ularda Vatan, tabiat va jamiyatga mas'uliyatli munosabat shakllanishiga yordam beradi. [2].

2. Ekologik tarbiya jarayonida tabiiy fanlarning o'rni

Ekologik tarbiya bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Tabiiy fanlar ekologik muammolarni ilmiy asosda tushuntirib, o'quvchilarda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarni shakllantiradi.

Masalan:

- suvning ifloslanishi;
- atmosferaga chiqayotgan gazlar;



- chiqindilarni qayta ishlash;
- oʻrmonlarning kamayishi;
- hayvonot dunyosining qisqarishi.

Bu masalalar dars jarayonida namoyishlar, tajribalar, videodarslar, kuzatuvlar orqali oʻrganilganda oʻquvchilarda ekologik ong kuchli shakllanadi [3].

Oʻquvchilar tabiatga mehribon boʻlish, tabiat bizga berayotgan barcha narsalarni avaylash, resurslardan unumli foydalanish kabi amaliy bilimlarni egallaydi. Masalan, “Suvning ahamiyati” mavzusini oʻtayotganda bolalarga suvni isrof qilmaslik, uni qadrlash koʻnikmalari oʻrgatiladi. Bu esa oʻz-oʻzidan ekologik tarbiyani mustahkamlaydi.

3. Tabiiy fanlarni oʻqitishda tarbiyaviy metodlar.

Tarbiyaviy maqsadlarning samarali amalga oshishi oʻqituvchining tanlagan metodlariga bogʻliq. Tabiiy fanlar darsida quyidagi metodlar yuqori samaradorlikka ega:

1. Kuzatuv va tajribalar metodi.

Tabiiy fanlarni oʻqitishda turli tajribalar oʻtkazish oʻquvchilarda eʼtibor, diqqat, kuzatuvchanlikni talab qiladi. Masalan, oʻsimliklarning oʻsishiga haroratning taʼsiri boʻyicha tajriba oʻtkazish orqali oʻquvchi oʻz zimmasidagi vazifani masʼuliyat va sabr bilan bajarishga oʻrganadi.

2. Munozara va savol-javob metodi.

Ekologik muammo boʻyicha bahslar oʻquvchilarning fikrlash madaniyatini oshiradi va oʻquvchilarda ekologik muammolarga yechim topish yoʻllarini izlash koʻnikmalari shakllanadi. Yana aytib oʻtish lozimki, boshlangʻich bosqichda berilgan ekologik tarbiya oʻquvchining keyingi hayotidagi dunyoqarashiga katta taʼsir oʻtkazadi. Bola tabiatni asrash, suvdan, havodan unumli foydalanishni, chiqindilarni toʻgʻri tashlash kabi odatlarni oʻsha davrdan boshlab oʻzlashtiradi. Shu sababli, men uchun bu fan oʻquvchi ongiga tarbiya singdirishda eng muhim fanlardan biridir.

3. Loyihaviy taʼlim metodi.

“Oʻrmon – bizning nafas manbaimiz” yoki “Toza suv – hayot manbai” kabi kichik loyihalar orqali oʻquvchilar jamoada ishlashni oʻrganadi.

4. Integratsiya metodi.

Tabiiy fanlarni texnologiya, geografiya, axloq tarbiyasi, informatika bilan bogʻlash tarbiyaviy jarayonni kuchaytiradi [4].

5. Amaliy jarayonlarda tarbiyaviy natijalar.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, tabiiy fanlar darslarida tarbiyaviy tomonlar muntazam yoritilgan maktablarda oʻquvchilarning:

- ekologik ong darajasi oshadi;
- masʼuliyatlilik kuchayadi;



- o'quv motivatsiyasi ko'tariladi;
- darslardagi faollik oshadi;
- ijodiy fikrlash rivojlanadi. [5].

Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida bolada estetik tarbiya ham rivojlanib boradi. Tabiatdagi ranglar uyg'unligi, fasllarning almashinuvi, hayvonlarning, qushlarning turfa xatti-harakatlari, daraxtlarning, gullarning tabiat chiroyiga chiroy qo'shayotgani – bularning barchasi hammasi bolada go'zallikni his qilish, tabiatni asrab-avaylash tuyg'usini shakllantirib boradi. Umuman olganda tabiiy fan darslari nafaqat bilim beradi, balki bolani hayotga tayyorlaydi. Unga to'g'ri yashashni, tabiatni asrashni, har bir jonli mavjudotni qadrlashni, o'zini mas'ul tutishni singdirib boradi. Boshlang'ich talimda tabiiy fanlarga shunchaki fan sifatida emas, balki tarbiya beruvchi kuchli vosita sifatida qarash eng to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

XULOSA.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning tarbiyaviy ahamiyati juda katta bo'lib, u o'quvchilarning ekologik, axloqiy, mehnat, aqliy hamda estetik tarbiyasini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarga befarq bo'lmaslik, ijodiy fikrlash, mas'uliyat va ijtimoiy faollik tabiiy fanlar ta'sirida samarali shakllanadi. Tabiiy fanlarni o'qitish nafaqat o'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini boyitadi, balki ularning dunyoqarashini, shaxsiy sifatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy metodlar, integratsiya va amaliy faoliyatlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi XTV. Tabiiy fanlar bo'yicha DTS. www.lex.uz (<http://www.lex.uz/>), 2023.
2. Yo'ldoshev J., Qurbonov R. Pedagogika. — O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan, 2020.
3. Mavlonova R., Xodjayeva M. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2021.
4. Rasulov A. "Tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tarbiya masalalari". — Ta'lim jarayoni, №4, 2022.
5. G'ulomov N. Interfaol metodlar asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2019.

